Maxsulot yetkazib berish shartnomasi

2022 y. «17» 5 2022-201-3-45-MT-son G'allaorol sh.

Bundan buyon "sotib oluvchi" deb ataluvchi : G'allaorol Maktabgacha ta'lim bo'limi nomidan nizom asosida faoliyat olib boruvchi raxbari **Z.Xidirov** bir tomondan va bundan buyon "sotuvchi" deb ataluvchi TAYANCH GOLD KAPITAL MCHJ nomidan nizom asosida faoliyat olib boruvchi raxbari **B.Nazarov** tomondan, savdolari natijalari bo'yicha ushbu kontraktni quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

## 1. KONTRAKT PREDMETI

1.1. Ushbu kontraktga asosan sotib oluvchi tovarni qabul qiladi va to'laydi, sotuvchi esa quyidagi shartlarga muvofiq yetkazib beradi:

| № | Tovarlarning nomi | O'lchov birligi | Miqdori | Birlik uchun shartnoma narxi | Shartnomaning umumiy qiymati |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Bolalar kiyim javoni 782*360*750 | dona | 36 | 1 900 000 | **68 400 000** |
| 2 | Uyinchok shkaf 500*350*1200 | dona | 30 | 820 000 | **24 600 000** |
| 3 | Bolalar stoli 700*700*520 | dona | 45 | 450 000 | **20 250 000** |
| 4 | Bolalar stuli 270*300*350 | dona | 180 | 180 000 | **32 400 000** |
| 5 | Bolalar karovati 2 kavatli 1480*680*1360 | dona | 90 | 1 780 000 | **160 200 000** |
| 6 | Ofisnoy mebel mudira xonasiga (stol rabochiy 900*1800*760, stol pristavka 1100*700*700, tumba pod telefon 800*450*700, kitob javoni 800*370*1800) | komp | 1 | 5 500 000 | **5 500 000** |
| 7 | Tarbiyachi stoli 1200*600*760 | dona | 6 | 700 000 | **4 200 000** |
| 8 | Tarbiyachi stuli 380*420*790 | dona | 12 | 190 000 | **2 280 000** |
| 9 | Bolalar urindigi skameyka 1050*250*200 | dona | 36 | 450 000 | **16 200 000** |
| 10 | Idishlar uchun javon 900*600*850 | dona | 7 | 600 000 | **4 200 000** |
| 11 | Bir tumbali stol Metadis,Xamshira, Psixolog uchun 1200*600*760 | dona | 6 | 700 000 | **4 200 000** |
| 12 | Stul yumshok Metodist,Xamshira,Psixolog uchun 380*420*790 | dona | 20 | 190 000 | **3 800 000** |
| 13 | Xamshira xonasi un mebelь (Stol rabochiy 900*1800*760, stol pristavka 1100*700*700, tumba mobilьnaya) | komp | 1 | 2 650 000 | **2 650 000** |
| 14 | Xujjatlar un shkaf kombinirovannыy 1300*400*1800 | dona | 2 | 1 450 000 | **2 900 000** |
| 15 | Kitob javoni 780*360*750 | dona | 6 | 900 000 | **5 400 000** |
| 16 | Idishlar uchun javon oshxonaga 1600*400*1800 | dona | 1 | 1 100 000 | **1 100 000** |
| 17 | Kushyotka xamshira xonasi uchun 1500*610*570 | dona | 1 | 850 000 | **850 000** |
| 18 | Shirma xamshira xonasi uchun 1500*1600 | dona | 1 | 650 000 | **650 000** |
| 19 | Dori darmon uchun maxsus temir oynali shkaf 450*500*1600 | dona | 1 | 2 300 000 | **2 300 000** |
| 20 | Doska gruxga 1500*1000 | dona | 4 | 850 000 | **3 400 000** |
| 21 | Postel bele uchun shkaf 850*470*1700 | dona | 8 | 850 000 | **6 800 000** |
| 22 | Dazmol stoli 1100*420*800 | dona | 2 | 485 000 | **970 000** |
| 23 | Oshxona un stol 1000*600*850 | dona | 5 | 1 850 000 | **9 250 000** |
| 24 | Stellaj 1000*400*1740 (polka nerjaveyka) | dona | 3 | 2 500 000 | **7 500 000** |
| | **Jami** | | | | **390 000 000** |

**1.2. Shartnomaning umumiy summasi: 390 000 000 (Uch yuz to'qson million) so'mni tashqil qiladi (summa harflar bilan).**

**Alohida shartlar :** Sifatli bo'lishi shart

## 2. YETKAZIB BERISH VA HISOB-KITOBLAR SHARTLARI

2.1. "Sotib oluvchi" mazkur kontraktni g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan kundan boshlab 3 ish kuni ichida qonunchilikka muvofiq, shartnoma umumiy summasidan 30 % miqdorida (shartnoma summasidan 30% miqdorida) oldindan to'lash majburiyatini oladi. qolgan 70% ni tovarni olgandan so'ng 3 ish kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura va v.b. asosida to'laydi.

2.2. "**Sotuvchi**" avans mablag'lari Yetkazib beruvchining tegishli hisobvarag'iga kelib tushgan vaqtdan boshlab 3 ish kuni ichida tovarni yetkazib berish majburiyatini oladi.

2.3. "Sotuvchi" amaldagi GOST ga muvofiq tovarni yetkazib berishi shart.

2.4. "Sotib oluvchi" tovarlarni qabul qilishda "**Sotuvchi**" ishtirokida olinayotgan tovarlarning to'liqligini va sifatini savdolarni o'tkazish to'g'risidagi e'londa (buyurtmanomada) ko'zda tutilgan boshqa talablarga muvofiqligini tekshirishi shart.

2.5. Agar mazkur kontrakt bilan boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni tashish va tushirish bo'yicha barcha xarajatlar **Sotuvchi** xisobidan amalga oshiriladi.

2.6. Sotib oluvchining roziligiga ko'ra tovar muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin.

2.7. Yetkazib berilgan tovar bevosita Sotib oluvchining mas'ul xodimlari tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi va unda yetkazib berilgan tovarlarning miqdori, uning sifati ko'rsatiladi.

Кўриб чиққан юрист: NORKUZIYEV ISLOM SAFARALIYEVICH. Хужжат рақами: GS3120503152

2.8. Mazkur kontrakda ko'zda tutilgan tovarlarni yetkazib berish, mazkur kontraktga muvofiq amalga oshiriladi.

## 3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Sotib oluvchining huquqlari:

Sotuvchidan Kontraktni bajarish uchun zarur bo'lgan davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Sotib oluvchi hisobidan tovarlar tashib keltirilganda, sotuvchidan transport xarajatlarini qoplab berishni talab qilish, agar mazkur kontraktning shartlaridja boshqa hollar belgilanmagan bo'lsa;

Sotuvchidan joylashtirilgan buyurtmanomaga ko'ra mazkur kontraktga muvofiq, tegishli sifat, assortiment bo'yicha tovarlarni yetkazib berishni talab qilish;

Sifatsiz tovar yetkazib berilganda o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilardan birini talab qilish:

- tegishli sifatdagi shunga o'xshash tovar bilan almashtirib berish;
- kamchiliklarni beg'araz bartarf etish;
- Sotuvchidan mazkur kontrakt shartlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplab berishni talab qilish.

3.2. Sotib oluvchining majburiyatlari:

- mazkur kontraktga muvofiq o'zining joylashtirgan buyurtmanomasi bo'yicha yetkazib berilgan tovarlarni qabul qilish;
- tovarlarning qiymatini mazkur kontraktda belgilangan narxda va muddatda to'lash.

3.3. Sotuvchi quyidagi xuquqlarga ega:

- "Sotib oluvchidan" oldindan to'lov va yetkazib berilgan tovarlar uchun yakuniy hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda va hajmlarda amalga oshirishni talab qilish;
- Sotib oluvchidan joylashtirgan buyurtmanomaga muvofiq, yetkazib berilgan tovarlarni asossiz ravishda qabul qilmaslik natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab berishni talab qilish.

3.4. Sotuvchining majburiyatlari:

- Sotib oluvchiga tovarlarni mazkur kontraktga muvofiq belgilangan muddatda, miqdorda va sifatda yetkazib berish;
- agar tovarlarni yetkazib berish jarayonida sotuvchi kontrakt shartlari va me'yorlardan va/yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan chetga chiqishga yo'q qo'ygan hollarda Sotib oluvchining talabi bo'yicha 5_- kun muddat ichida barcha aniqlangan kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish.

3.5. Mazkur kontrakt belgilangan tartibda mazkur kontrakt shartlari va talablari va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq ijro etilishi shart.

3.6. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini ta'minlagan taqdirda kontrakt bajarilgan hisoblanadi.

## 4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

4.1. Sotib oluvchi:

- savdolarni o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi;
- savdolar g'olibi bo'lgan yetkazib beruvchi bilan kontrakt tuzish yoki savdolar g'olibi bo'lgan yetkazib beruvchi bilan kontrakt tuzishni rad etish muddatiga rioya etilishi (ajratilgan byudjet mablag'lari kamayishi holatlari bundan mustasno);
- tomonlar o'rtasidagi kontrakt majburiyatlarini bajarish tugallangandan keyin besh yil mobaynida savdolar predmeti bo'yicha e'lonlar va texnik hujjatlarning asl nusxalari saqlanishi uchun javob beradi.

4.2. Tovarlarni tanlab olmaslik, shuningdek yetkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi yetkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi.

Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, yetkazib beruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

4.3. To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun buyurtmachi mahsulot yetkazib beruvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Yetkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

4.4. Sotuvchi:

- savdolarda qatnashish uchun taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi;
- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan tovarlarni yetkazib berish muddatlari va joyi bo'yicha yetkazib beruvchi buyurtmanomalari shartlarining buyurtmachi buyurtmanomalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;
- savdolar shartlarining boshqa buzilishlari;
- tuzilgan kontrakt shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

4.5. Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, yetkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar yetkazib berganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.6. Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, tovar yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan

xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.7. Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (sotib oluvchiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi (buyurtmachi) jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin yetkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi yetkazib beruvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

## 5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1.Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita iqtisodiy sudiga murojaat qilishga haqlidir.

5.3. Tomonlar iqtisodiy sudiga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

## 6. FORS-MAJOR

6.1. Ushbu shartnomaga asosan majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlar natijasida vujudga qelganda tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaslikdan qisman yoki to'liq ozod bo'ladilar.

6.2 Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlariga tomonlarning irodasi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar kiradi.

6.3 Shartnoma tomonlaridan qaysi biri uchun majburiyatlarni yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari sababli bajarmaslik ma'lum bo'lsa, darhol ikkinchi tomonga bu xaqda 10 kun ichida ushbu holatlar harakati sababini dalillar bilan taqdim etishi lozim.

6.4. Shartnomaga asosan majburiyatlarni ijro qilish muddati ushbu yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlar davom etish muddatiga qadar uzaytiriladi. Agar yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) ta'siri 60 kundan ortiqroq davom qilsa, tomonlar tashabbusiga binoan shartnoma bekor qilinishi mumkin.

## 7. BOSHQA ShARTLAR

7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

## 8. KONTRAKTNING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Mazkur kontrakt g'aznachilik bo'linmalarida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 y. "31" dekabrigacha amal qiladi.

8.2. Kontraktning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda kontrakt bajarilgan hisoblanadi.

8.3. Kontraktning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

## 9. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

| Sotuvchi | Sotib oluvchi |
|---|---|
| Tashkilot nomi :« TAYANCH GOLD KAPITAL MCHJ »<br>Manzil: Jizzax viloyati, Jizzax shaxri Bobur mahallasi<br>STIR kodi: 309 300 030<br>OKONX: 15271<br>X/R 2020 8000 05418425 1001<br>Bank: Milliy bank Jizzax viloyat xududiy filiali<br>MFO: 00121<br><br>Raxbar B. Nazarov | Tashkilot nomi: G'allaorol maktabgacha ta'lim bo'limi<br>Manzil: G'allaorol shaxri Mustakillik ko'chasi<br>Telefon: 0372-432-11-26 0372-432-11-29<br>STIR kodi: 305150625<br>IFUT: 00014<br>Bank nomi Markaziy bankning Toshkent shaxar bosh boshqarmasi<br>Buyurtmachining G'azna shaxsiy hisobvarag'i: 100022860082097091100251014<br>G'aznachilik bo'linmasi nomi: G'allaorol tuman G'aznachilik bo'limi<br>G'aznachilik bo'linmasi INN raqami: 201122919<br>Yagona G'aznachilik hisobvarag'i (YaG'H): 23402000300100001010<br>Raxbar (direktor): Z.Xidirov |

S77562765

Текст

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

**1.Loyihaning turi:** X o' j a l i k  Sh a r t n o m a.

**2.Loyihaning nomi:** Mahsulot yetkazib berish shaklida.

Ushbu shartnoma Bundan buyon "mahsulot yetkazib beruvchi" deb ataluvchi: G'allaorol Maktabgacha ta'lim bo'limi nomidan nizom asosida faoliyat olib boruvchi rahbari Z.Xidirov bir tomondan va bundan buyon "buyurtmachi" deb ataluvchi TAYANCH GOLD KAPITAL MCHJ nomidan nizom asosida faoliyat olib boruvchi rahbari B.Nazarov tomondan ushbu shartnoma quyidagilar to'g'risida tuzdilar yani yetkazib beruvchi tomonidan buyurtmachiga 2022-yilning 31-dekabr kuniga qadar umumiy summasi: 390 000 000 (Uch yuz to'qson million) so'mlik bog'chalar uchun mebel yetkazib berish to'g'risida tuzilgan.

**3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.**

Loyiha G'allaorol tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan. 2022-yil 16-may kuni elektron tizimga biriktirilgan va RS77562765-raqam bilan ro`yxatga olingan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq xo`jalik shartnomasiga nisbatan qo`yiladigan talablar asosida ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligining 2018 yil 15 maydagi 185-son buyrug'i. 2018 yil 27 sentyabr kungi PQ-3953-sonli DAVLAT XARIDLARI TO'G'RISIDA»GI QONUNI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XISOB PALATASI VA MOLIYA VAZIRLIGINING 2022-YIL 5-APREL KUNGI 02-10 VA 01/03-04-32/185-SONLI QO'SHMA XATI.

**Markaz bosh yuriskonsulti** **I.S.Norkuziyev**

**2022-yil 16-may**

"TASDIKLAYMAN"
G'allaorol tumani Maktabgacha Talim Bo'limi
mudiri tanlov komissiyasi raisi:

Z.Xidiroov

2022 yil «17» may

G'allaorol tumani Maktabgacha Talimi Bo'limi (keyingi urinlarda buyurtmachi deb yuritiladi) uchun byudjet xisobidan G'allaorol tumani 2-son davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga mebel jihozlari xaridi bo'yicha shartnomalar tuzish uchun ichki tanlov o'tkazish komissiyasining

**MAJLIS BAYONNOMASI № 81**

«17» may 2022 yil                                        Gallaorol shaxri

G'allaorol tumani Maktabgacha Talimi Bo'limi mudirining 2022 yil «7» yanvar №4k-sonli buyrugi bilan tasdiklangan ichki tanlov komissiyasi azolari kuyidagi tartibda

**QATNASHDILAR:**

KOMISSIYA AZOLARI:

| | |
|---|---|
| Gallaorol t. M.T.B.mudiri tanlov komissiyasining raisi:- | Z.Xidirov |
| Gallaorol t M.T.B bosh xisobchisi: | S.Axralov |
| Gallaorol t M.T.B Tovar moddiy boyliklari buyicha xisobchi | M.Danaboyeva |
| Gallaorol t. M.T.B.Davlat xaridlari buyicha xisobchi | J.Rustamov |
| Gallaorol t M.T.B xodimi | A.Xusanov |
| Gallaorol t. M.T.B. xo'jalik mudiri: | R.Mamayusupov |

**KUN TARTIBI:**

1. G'allaorol tumani Maktabgacha Talimi Bo'limiga qarashli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga Tovar-moddiy zahiralari tan narxi va muddatlari bo'yicha eng maqbul tanlov taklifini va g'olibini aniqlash. **LOT №79182 «11» may 2022 yil summasi 390 000 000 so'm.**
2. G'allaorol tumani Maktabgacha Talimi Bo'limiga qarashli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga Tovar-moddiy zahiralari xarid qilish buyicha tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi pudratchi tashkilotlar ishtirok etish istagini bildirgan tashkilotlar:

1. **TAYANCH GOLD KAPITAL MCHJ**
2. **OOO Asia universal productio**

Talabgorlar tomonidan tanlovga taqdim etilgan xujjatlar tug'ri rasmiylashtirilganligi, tuzilganligi va to'liq xajmda to'lik taqdim etilganligi aniqlandi.
G'allaorol tumani Maktabgacha Talimi Bo'limiga qarashli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga Tovar-moddiy zahiralari xarid qilish bo'yicha talabgorlar tomonidan taqdim etilgan takliflarni tanlov ishtirokchilariga o'qib eshittirildi. shu munosabat bilan baxolash komissiyasi a'zolari talabgorlar takliflarini o'rganib chiqayotganda, bu takliflar amalga oshirishi mumkinligini va asoslanganligiga e'tibor berishlari lozimligi takidlandi.

11.05.2022-yildagi №-79182 sonli davlat buyurtmasi tomonidan rasmiylashtirilgan kundan davlat xaridlarining elektron tizimida 2 ish kuni muhokama qilish mobaynida tanlash ishtirokchilari tomonidan e'tirozlar kelib tushmagan va xarid komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuziladi.

Komissiya azolarining fikr-muloxazalarini eshitib va o'rganib chiqqan xolda baxolash komissiyasi

**QAROR QILADI:**

Tanlov golibining taklifiga ko'ra . **TAYANCH GOLD KAPITAL MCHJ** tomonidan G'allaorol tumani Maktabgacha Talimi Bo'limiga qarashli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga Tovar-moddiy zahiralari xarid qilish bo'yicha qiymati joriy narxlarda 390 000 000 so'm, tovarlarni to'lik yetkazish muddati 10 kun.

Tanlov g'olibining taklifiga kura **TAYANCH GOLD KAPITAL MCHJ** bilan tumani Maktabgacha Talimi Bo'limi tovar-moddiy zahiralari xarid qilish bo'yicha oldi-sotdi shartoma tuzilsin.

KOMISSIYA AZOLARI:

| | |
|---|---|
| Gallaorol t. M.T.B.mudiri tanlov komissiyasining raisi:- | Z.Xidirov |
| Gallaorol t M.T.B bosh xisobchisi: | S.Axralov |
| Gallaorol t M.T.B Tovar moddiy boyliklari buyicha xisobchi | M.Danaboyeva |
| Gallaorol t. M.T.B.Davlat xaridlari buyicha xisobchi | J.Rustamov |
| Gallaorol t M.T.B xodimi | A.Xusanov |
| Gallaorol t. M.T.B. xo'jalik mudiri: | R.Mamayusupov |

## Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 79182 на приобретение Ғаллаорол туманида қайта таъмирланган 180 ўринли 2-сон ДМТТга керакли жихозлар харид қилиш

Способ проведения электронный

Дата 11.05.2022

Время рассмотрения 11.05.2022 16:17

Конкурсная комиссия Мактакбгача таълим булими (МБХ), (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | XIDIROV ZAFAR BAXODIROVICH | Предцедатель комиссии | Предцедатель комиссии |
| **Секретарь комиссии** | AXRALOV SOXOBIDDIN ELMURATOVICH | Бош хисобчи | Мактабгача таълим бўлими |
| **Член комиссии** | DANABOYEVA MADINA NARBOYEVNA | Товар моддий бойликлар бўйича хисобчи | Мактабгача таълим бўлими |
| **Член комиссии** | RUSTAMOV JASURJON TOLLIBOY O'G'LI | Давлат харидлари ва шартномалар бўйича мутахасис | Мактабгача таълим бўлими |
| **Член комиссии** | XUSANOV AKMAL NORBOYEVICH | Член комиссии | Член комиссии |
| **Член комиссии** | MAMAYUSUPOV RUSTAM SAYFULLAYEVICH | хўжалик мудири | Мактабгача таълим бўлими |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 11.05.2022 года № лота 79182.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 85.00 / Весовой коэф. ценовой части: 15.00)

Мин. балл: 50

Предмет закупки:

| | |
|---|---|
| Наименование товара (работы, услуги) | **Набор детской мебели** |
| Подробное описание | Ғаллаорол туманида қайта таъмирланган 180 ўринли 2-сон ДМТТга керакли жихозлар: |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 429 673 500.00 |
| Стартовая сумма | 429 673 500.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Солиқдан қарздорлиги йўқлиги тўғрисидаги маьлумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Солиқдан қарздорлиги йўқлиги тўғрисидаги маьлумот

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ООО Asia universal productio | 20 | Корхонамиз 5 йиллик тажрибага эга бўлиб 2019-2020-2021-йилларда бюджет ва нобюджет ташкилотлар билан самарали хамкорликда ишлаб келмоқда | 20 | Экспертная | | |
| TAYANCH GOLD KAPITAL MCHJ | 20 | Солиқдан қарздорлиги йўқлиги тўғрисидаги маьлумот бириктирилди | 20 | Экспертная | | |

Критерий №2 Ишлаб чиқариш жараёнида фойдаланадиган ускуналари тўғрисида маьлумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Ишлаб чиқариш жараёнида фойдаланадиган ускуналари тўғрисида маьлумот

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ООО Asia universal productio | 20 | Корхонамиз 5 йиллик тажрибага эга бўлиб 2019-2020-2021-йилларда бюджет ва нобюджет ташкилотлар билан самарали хамкорликда ишлаб келмоқда | 14 | Экспертная | | |
| TAYANCH GOLD KAPITAL MCHJ | 20 | Ишлаб чиқариш жараёнида фойдаланадиган ускуналари тўғрисида маьлумот бириктирилди | 19 | Экспертная | | |

Критерий №3 Боғча ёшидаги тарбияланувчилар учун Санпин меёрлари асосида ишлаб чиқилган параметрга мос мебел жихозлари етказиб бериш шарт. Бажарилган ишлари тўғрисида маьлумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Боғча ёшидаги тарбияланувчилар учун Санпин меёрлари асосида ишлаб чиқилган параметрга мос мебел жихозлари етказиб бериш шарт. Бажарилган ишлари тўғрисида маьлумот

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ООО Asia universal productio | 20 | Корхонамиз 5 йиллик тажрибага эга бўлиб 2019-2020-2021-йилларда бюджет ва нобюджет ташкилотлар билан самарали хамкорликда ишлаб | 14 | Экспертная | | |

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | келмоқда | | | | |
| TAYANCH GOLD KAPITAL MCHJ | 20 | Бажарилган ишлари тўғрисида маьлумот бириктирилди | 19 | Экспертная | | |

Критерий №4 Иштирокчи корхонанинг молиявий холати тўғрисида маьлумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Иштирокчи корхонанинг молиявий холати тўғрисида маьлумот

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| OOO Asia universal productio | 20 | Корхонамиз 5 йиллик тажрибага эга бўлиб 2019-2020-2021-йилларда бюджет ва нобюджет ташкилотлар билан самарали хамкорликда ишлаб келмоқда | 20 | Экспертная | | |
| TAYANCH GOLD KAPITAL MCHJ | 20 | Баланс ва молиявий натижа бириктирилди | 20 | Экспертная | | |

Критерий №5 Мебел ишлаб чиқариш учун сертификат бўлиши керак

Тип: Текстовое значение

Описание: Мебел ишлаб чиқариш учун сертификат бўлиши керак

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| OOO Asia universal productio | 20 | Корхонамиз 5 йиллик тажрибага эга бўлиб 2019-2020-2021-йилларда бюджет ва нобюджет ташкилотлар билан самарали хамкорликда ишлаб келмоқда | 5 | Экспертная | | |
| TAYANCH GOLD KAPITAL MCHJ | 20 | сертификат бириктирилди | 5 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|
| OOO Asia universal productio | 429 673 500.00 | 380 000 000.00 | 10.05.2022 16:18:45 | 15.00 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| TAYANCH GOLD KAPITAL MCHJ | 429 673 500.00 | 390 000 000.00 | 10.05.2022 16:44:48 | 14.62 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| OOO Asia unversal productio | 62.05 | 15 | 77.05 |
| TAYANCH GOLD KAPITAL MCHJ | 70.55 | 14.62 | 85.17 |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 79182 от 11.05.2022 года на приобретение Ғаллаорол туманида қайта таъмирланган 180 ўринли 2-сон ДМТТга керакли жихозлар харид қилиш определила победителем:

TAYANCH GOLD KAPITAL MCHJ
309300030

и резервный исполнитель: OOO Asia unversal productio (301576714)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| Член комиссии | RUSTAMOV JASURJON TOLLIBOY O'G'LI | Согласен | |
| Член комиссии | XUSANOV AKMAL NORBOYEVICH | Согласен | |
| Председатель комиссии | XIDIROV ZAFAR BAXODIROVICH | Согласен | |
| Член комиссии | DANABOYEVA MADINA NARBOYEVNA | Согласен | |
| Член комиссии | MAMAYUSUPOV RUSTAM SAYFULLAYEVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП